



XOTIN-QIZLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKINI O‘RGANISHNING METODOLOGIK MASALALARI

*Shaxnoza Xolmaxamatova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarning davlat xizmati, davlat va jamiyat boshqaruvi sohalaridagi faoliyatining o‘shini ta‘minlaydigan, yoki aksincha ularning siyosatdan uzoqlashuviga, ijtimoiy murakkab vaziyatlar tufayli faolligi pasayishiga sabab bo‘ladigan omillar, ularning davlat va jamiyat hayotida muayyan bir qarshiliklarga sabab bo‘ladigan mental xususiyatlarni tadqiq qilishga qaratilgan metodologik muammolar keltirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Davlat, jamiyat, boshqaruv, siyosiy faollik, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, mentalitet, milliy xususiyatlar, metodologiya, davlat xizmati.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruv tizimida mavjudligi, faoliyati hamda faolligi, ular uchun ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy, huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlarning yaratilganligi masalasi har bir davrda va har qanday siyosiy tuzum uchun dolzarb sanaladi. Har bir jamiyatning fundamental qadriyatlari va zamonaviy jamiyat nuqtai-nazaridan qaraganda, u yoki bu sohada, tarmoqda va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ahvoli, maqomi, jamiyatdagi pozitsiyasi mental jihatlarni, davlat va jamiyatda adolat mezonlarining qay darajada qaror topganligini, gender tenglikka amal qilinishini, xotin-qizlarning yaratilgan shart-sharoitlarning holati va ularning mamlakat siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotidagi ishtirok darajasini aks ettirishini unutmaslik lozim. Zero, xotin-qizlarning ijtimoiy, ma‘naviy, ma‘rifiy siyosiy faolligini yuksaltirish va ishbironlik faoliyatini oshirish - bu jamiyatning 50 foizlik salohiyatidan foydalanish demakdir.

Bugungi kunda, jahon miqyosida oladigan bo‘lsak, davlat muassasalari biznes sohasiga nisbatan xotin-qizlarni borgan sari ko‘proq ishga qabul qilmoqda va vaqt o‘tishi bilan bu farq dinamik tarzda xotin-qizlar foydasiga o‘sib bormoqda.



Ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda AQSH davlat va mahalliy hokimiyat organlarida xizmat ko'rsatuvchilarning taxminan 58 foizi xotin-qizlardir (bu ko'rsatkich federal agentliklar va xususiy sektorga nisbatan 25 foizga ko'proqligini ko'rsatib turibdi). Demak, davlat xizmati tizimida xotin-qizlar holati masalasi ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan juda dolzarbdir. Bir qator tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramasdan, hali ham yechimini kutayotgan masalalar, jumladan metodologik xarakterdagi muammolar saqlanib qolmoqda.

Bunday holat bizning mamlakatimiz uchun ham xos va dolzarbdir. Zero, O'zbekistonda ham davlat xizmatining ko'plab lavozimlarini xotin-qizlar "zabt etganligini" e'tirof etmoq joiz. Ularning son jihatdan ko'payib borayotganligini davlat xizmatchilari va fuqarolik lavozimlarining barcha sohalari va toifalarida kuzatish mumkin. Sohada ishlovchilar umumiy sonida xotin-qizlarning ulushi milliy iqtisodiyotdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan ham davlat boshqaruvida xotin-qizlarlar holatini o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur mavzu doirasida davlat xizmatida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy, ma'naviy, mental, siyosiy va madaniy holatini, shuningdek, qator jihatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ularning hayotiy muammolari, ehtiyoj va talablarini (avvalo, oiladagi roli va majburiyatlari bilan ham bog'liq), ishdan qoniqish darajasini, kasbiy va shaxsiy qadriyatlarini yaxshiroq tushunishimiz zarur. Chunki, natija davlat muassasalari va tashkilotlarida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ichki tashkiliy siyosatni rejalashtirish va istiqbollari belgilash uchun ham muhim.

Bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'layotgan holatni, ya'ni tashkilotlar, muassasalar va davlat xizmatida ishlayotgan xotin-qizlarning zaruriy va qimmatli sifatlari haqida ham zaruriy tadqiqotlarni ko'paytirish va metodologik jihatlarini rivojlantirishga katta ehtiyoj vujudga kelmoqda.

Ko'plab xorijiy adabiyotlarda qayd etilishicha, xotin-qizlar xizmat qilishga yo'nalganligi jihatidan erkaklardan anchayin ustun (bu hukumat va nodavlat



tashkilotlar uchun muhim), biroq ular emosional o'zini nazorat qilish va o'z-o'ziga ishonch jihatlarida erkaklardan (eng ko'p darajada) ortda qoladilar. Bu esa sovuqqonlik bilan qabul qilinishi lozim bo'lgan qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi – degan yanglik qarashlarning mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, xotin-qizlar o'z hamkasblar bilan hamkorlik qilishda erkaklarga nisbatan yaxshiroq (erkaklar esa ko'proq mustaqil ishlashni afzal ko'radilar). Shuningdek, xotin-qizlar ijtimoiy jihatdan bir muncha sezgir, hamxo'r va mehribonroq deyish ham mumkin.

Xotin-qiz rahbarlar haqida esa shunday dalillar ham mavjudki, ular erkak hamkasblariga nisbatan ko'proq ishtirokchi, demokrat va tenglikka asoslangan holda qarorlar qabul qilishga va boshqaruv uslubiga moyil. Erkak rahbarlar esa ko'proq avtoritar yondashuv, direktivlik va shaxsiy hokimiyat hamda yutuqlarga intilish bilan ajralib turadi. Xotin-qiz liderlar, shuningdek, erkak liderlarga nisbatan ko'proq transformasion (o'zgartiruvchi) boshqaruv uslubiga ham ega ekanligi amaliy hayotda uchrab turadi. Shu bilan birga, davlat xizmati lavozimlarida erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi farqni ortiqcha bo'rttirib ko'rsatish ham to'g'ri emas.

Alohida aytish bo'lgan yana bir jihat – bu xotin-qizlarning siyosiy tafakkuri erkaklarnikidan deyarli farq qilmaydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, davlat xizmatchisi bo'lgan xotin-qizlar tinglash va muloqot qilish ko'nikmalari, empatiya va hamdardlik jihatidan erkak hamkasblaridan ustundir.

Xotin-qizlar, ehtimol, mental, diniy, milliy varashlar tufayli tashqi muhiti bilan tez munosabatga kirisha olmas, lekin, ichki tashkiliy aloqalarni rivojlantirishda erkaklarga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

Umuman olganda, davlat hokimiyati tuzilmalarida xotin-qizlar faoliyatiga nisbatan bir qator ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqdaki, ularni xotin-qizlar ishtirokida shakllantirilgan byudjet taqsimoti yoki halollik masalalarida ko'proq ko'rishimiz mumkin.

Jahon amaliyotida gender tengligi va tengsizligini baholash uchun turli indikatorlar ishlab chiqilgan va turli mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Masalan, BMT huzuridagi tadqiqotchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan ba'zi



indikatorlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Biroq davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning haqiqiy holatini chuqur va mazmunli tushunish uchun buning o'zi yetarli emas.

Xotin-qizlar siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvidagi ishtiroki muammolarini chuqur o'rganish borasida dolzarb masalalar ham borki, ular yetarli darajada tadqiq etilmagan (umuman olganda, ularni o'rganish odatda qiyin kechadi). Bunday mavzular qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- davlat boshqaruvi tizimida qaror qabul qilish va siyosat shakllantirishga xotin-qizlarning haqiqiy ta'siri;

- davlat xizmati sohasida band bo'lgan xotin-qizlarning o'z-o'zini anglashi, ularning asosiy qadriyatlari va e'tiqodlari (kasbiy va shaxsiy), shuningdek, ushbu qadriyat va e'tiqodlarning o'zgarish dinamikasi;

- xotin-qizlarning davlat xizmati faoliyatiga qo'shgan umumiy hissasi, jumladan, jamoatchilik ongida davlat xizmatchisi obrazining shakllanishiga ta'siri;

- davlat xizmati tizimida xotin-qiz xodimlarning xizmat bo'yicha o'sish imkoniyatlari hamda ular bilan bog'liq gender tengligi va adolat masalalari;

- xotin-qizlarning uy mehnati davlat xizmati vazifalarini bajarishiga qanday ta'sir ko'rsatishi (va aksincha);

- davlat boshqaruvida xotin-qizlar mehnatiga to'lanadigan ish haqi va boshqa rag'batlantirish tizimining sarflangan mehnatga mosligi;

- davlat xizmati tizimida kasbiy faoliyat bilan bog'liq turli ne'matlarni (imtiyozlar, lavozimlar, mukofotlar, e'tirof) taqsimlash masalalari va hokazo.

Bu va shunga o'xshash ko'plab masalalarni chuqur o'rganish uchun maxsus tadqiqotlar talab etiladi. Ular ko'pincha jamoatchilik muhokamasiga olib chiqilmaydigan, yashirin (latent) xususiyatga ega bo'lgan aniq muammolarni ochib berishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Hozirgi kunga qadar "qat'iy" va "yumshoq" metodlar, yoki pozitivistik va postpozitivistik yondashuvlar, shuningdek, miqdoriy va sifatli tadqiqot paradigmatlari o'rtasida ma'lum bir qarama-qarshilik saqlanib qolmoqda (bu yo'nalishlar o'rtasidagi farq turlicha talqin qilinishi mumkin).



Ta'kidlash lozimki, gender tadqiqotlarini sifatli metodologiya asosida amalga oshirishda ko'p hollarda qisqa muddatli loyihalar ustunlik qiladi. Asosan bir vaqtning o'zida o'tkaziladigan (kross-seksion) tadqiqotlar — so'rovlar, intervyular, erkin suhbatlar, anketalash, fokus-gruppalar va boshqalar keng tarqalgan. Biroq bunday qisqa muddatli tadqiqotlar o'zgarishlar dinamikasini to'liq anglash imkonini bermaydi. Davlat xizmati nuqtai nazaridan qaraganda, ular uzoq muddatli tendensiyalar, tizimdagi fundamental o'zgarishlar, qadriyatlar va e'tiqodlar tizimidagi o'zgarishlarni chuqur o'rganish imkonini cheklaydi.

Sifatli uzoq muddatli tadqiqotlar metodi sub'yektiv ma'nolar, tajribalar, his-tuyg'ular va o'z-o'zini anglashni vaqt omili va o'zgarish dinamikasi bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Uning asosiy afzalligi ham aynan shundadir.

Umuman olganda, davlat xizmati tizimida xotin-qizlar holatiga oid gender-sezgir tadqiqotlarni o'tkazish yanada tizimli yondashuvni talab qiladi. Bunday tadqiqotlar alohida-alohida amalga oshiriladigan izolyatsiyalangan ishlardan ko'ra, yaxlit, tuzilmaviy va doimiy amal qiladigan tadqiqot dasturlariga aylanishi lozim.

Gender muammolarining o'ziga xos xususiyatlarini (ularning yashirinligi, formal ko'rsatkichlar orqali aniqlash qiyinligi va boshqalar) hisobga olgan holda, bunday tadqiqotlarni tashkil etishda quyidagi jihatlarni chuqurroq ishlab chiqish zarur:

Tadqiqot maqsadlarini aniq belgilash: ma'lumotlar qanday maqsadlarda olinadi va keyin qanday qo'llaniladi? Masalan, gender tengligi va adolatni ta'minlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat xizmatidagi yashirin axloqiy muammolarni hal qilish, kadrlar siyosati va boshqaruvini samarali rejalashtirish (xotin-qizlarni davlat xizmatiga jalb qilish, iqtidorli kadrlarni saqlab qolish), xotin-qizlarning davlat xizmatidagi umumiy maqomini yaxshilash va h.k.

Muayyan muammolar, holatlar, o'zgarishlar, jarayonlar, tuzilmalar va munosabatlarni chuqur tushunish uchun qaysi metodlar zarur ekanligini asoslash.

Bu jarayonda an'anaviy metodlarga (yoki formal ko'rsatkichlarga) tanqidiy yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni, qay jihatlarda an'anaviy



metodlar yetarli emasligi, nima uchun ular kerakli darajada tegishli ma'lumotlarni berolmasligi aniqlashtirilishi lozim.

Xulosa. Shu tariqa, asosiy masala rejalashtirilayotgan tadqiqotning gender-sezgirligini qanday oshirishga erishishdan iborat. Natijada, muayyan tadqiqot loyihasi uchun aniq metodologiya ishlab chiqilishi lozim (shu jumladan, avvalgi tadqiqotlar tajribasini ham hisobga olgan holda). Albatta, bu faqat sifatli metodlar majmuasi bo'lib qolmay, balki miqdoriy va sifatli usullarning muayyan kombinatsiyasini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Amaliyot darajasidagi muammolar. Ko'p jihatdan ilmiy natijalarga bo'lgan talab va ularning amalda qo'llanilishiga bog'liq. Agar tadqiqot natijalari talab etilmasa (bu esa ko'plab gender tadqiqotlari uchun hali ham muammo bo'lib qolmoqda), bu mazkur ilmiy yo'nalish rivojiga, tadqiqotchilarni (ayniqsa, faqat xotin-qizlar emas, balki keng doiradagi olimlarni) jalb etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu tariqa, ilmiy natijalardan keyinchalik foydalanish imkoniyati ham alohida e'tibor markazida bo'lishi va rejalashtirilgan chora-tadbirlar orqali ilgari surilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Tom 3. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Tom 4. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Kholmakhatova Shakhnoza. Gender policy and issues of increasing the active participation of women in socio-political life and entrepreneurship. Innovatech: Conference on Scientific Innovations and Research www.euro-conferences.org.



6. Mayer G. Selected Characteristics of Private and Public Sector Workers. Congressional Research Service, 2014. 31 p.
7. Henry N. Public Administration and Public Affairs. Thirteenth Edition. Georgia Southern University, Routledge, 2018. 534 p.
8. Young G., Women, Naturally Better Leaders for the 21st Century. New York: Routledge, 2016. 13 p.